SOVET DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSIDA DONCHILIK VA TAKRORIY EKIN AMALIYOTI (1925–1991-YILLAR)

Haqqulov Mehriddin Yunusovich
Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich doktoranti,
“Xorijiy til va ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
mexriddinhaqqulov5756@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 1925–1991-yillarda Farg‘ona vodiysining o‘zbek qismi - Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari dehqonchiligida donchilik tarmog‘ining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Ekin maydonlari tarkibidagi o‘zgarishlar paxta yakkahokimligi siyosatining bevosita hosilasi sifatida qaraladi. Izlanishlar davomida davriy matbuot, statistik va agrotexnik nashrlar ma’lumotlari asosida urush yillaridagi majburiy qayta taqsimlash hamda 1950–1960-yillardagi takroriy ekin amaliyotining vodiy sharoitidagi natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, duragay makkajo‘xori navlarining joriy etilishi va urug‘chilik tizimining tashkil qilinishi masalalariga to‘xtaladi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, donchilik, paxta yakkahokimligi, takroriy ekin, arpa, makkajo‘xori, VIR-42 duragayi, ekin maydonlari tarkibi, urug‘chilik, kolxoz.


Kirish. Sovet davri O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarixini o‘rganishda e’tiborimiz tabiiy ravishda paxtachilikka qaratiladi. Biroq paxta maydonlarining kengayishi bo‘sh yerlar hisobiga emas, ko‘p hollarda boshqa ekinlar hisobiga ro‘y bergani uchun donchilikning taqdiri ham, mohiyatan, o‘sha paxta siyosatining boshqa bir tomoni hisoblanadi. Farg‘ona vodiysi bu jarayonni kuzatish uchun qulay obyekt: bu yerda sug‘oriladigan yer tanqisligi respublikaning boshqa mintaqalariga qaraganda o‘tkirroq sezilgan, aholi zichligi esa eng yuqori bo‘lgan.

Mazkur maqolada 1925–1991-yillarda vodiy dehqonchiligida don va yem-xashak ekinlarining o‘rni, ekin maydonlari tarkibining o‘zgarish bosqichlari hamda mahalliy sharoitda keng qo‘llanilgan takroriy ekin amaliyoti o‘rganiladi. Tadqiqotning hududiy chegarasi Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari bilan cheklangan.

Asosiy qism. Sovet davri agrar siyosatining tanqidiy tahliliga R.X.Aminovaning 1989-yilda “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalida chop etilgan maqolasi asos bo‘ldi. Unda 20–

30-yillardagi jamoalashtirish jarayonining ochilmagan sahifalari, jumladan Andijon va Farg‘ona hududlarida yalpi jamoalashtirishning majburiy tarzda o‘tkazilishi ilk bor ochiq muhokamaga qo‘yilgan [2, 35-b.]. “O‘zbekistonning yangi tarixi”ning ikkinchi kitobida esa respublika miqyosidagi umumlashtirilgan raqamlar va davlat hujjatlari keltiriladi [1]. Agrotexnik adabiyot orasida M.Tuxsinov va hammualliflarining urug‘chilik tizimiga bag‘ishlangan qo‘llanmasi ahamiyatli [8]. Shu bilan birga, vodiy miqyosida donchilikning alohida tarmoq sifatidagi taqdiri hozirgacha maxsus tadqiqot mavzusi bo‘lgani yo‘q - bu esa qo‘lga kiritilgan xulosalarni keyingi arxiv izlanishlari bilan to‘ldirishni taqozo etadi.

1920-yillarning ikkinchi yarmida donchilik hali mustaqil tarmoq sifatida saqlanib turgan edi. 1928-yil oxirida respublikada 1888 ta paxtachilik shirkati bilan bir qatorda 442 ta g‘allachilik shirkati faoliyat ko‘rsatgan [1, 337-b.]. Bu raqam kooperatsiya tizimida donchilikning ikkinchi o‘rinni egallaganini, biroq hali e’tibordan chetda qolmaganini ko‘rsatadi.



Ikkinchi jahon urushi yillari - vodiy dehqonchiligi tarixidagi eng qiziqarli, garchi majburiy bo‘lsa-da, tajriba davri. Front va ichki bozorni oziq-ovqat bilan ta’minlash zarurati ekin maydonlari tarkibini o‘zgartirishga majbur qildi. Agar urushdan oldin har bir tumanda ekin maydonlarining 90 foizi paxta hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, urush yillarida Farg‘ona viloyatida paxta ekiladigan maydonlar 51 foizga tushdi. Qolgan sug‘oriladigan yerlarning 25 foiziga g‘alla, 4 foiziga sabzavot va poliz ekinlari, 16 foiz maydonga esa beda ekildi [1, 447-b.]. Bu - butun sovet davri mobaynida vodiyda ekin maydonlari tarkibining eng muvozanatli holati bo‘ldi. Urush davrida respublika g‘allakorlari mamlakatga 82 million pud g‘alla va 213 ming sentner sholi yetkazib berdilar [1, 447-b.].

Urushdan keyin bu muvozanat saqlanmadi. 1947-yilda O‘zbekistonning mas’ul xodimlari Markaz tomonidan “mahalliy vazifalar foydasiga umumdavlat manfaatlarini unutib qo‘yish”da ayblandi va ustunlik yana paxtachilikka qaratildi [1, 536-b.]. Shunga qaramay, 50-yillarning oxiri va 60-yillarning boshlarida mahalliy agronomlar oraliq ekin hisobiga yo‘qotilgan maydonni qisman qoplash yo‘lini topdilar.

Bu yo‘l takroriy ekin deb ataldi. Agronom G.I.Solyanko 1960-yilda yozganidek, respublikaning sug‘oriladigan zonasida ayrim ekinlardan yiliga ikki-uch hosil olish mumkin

edi; shu imkoniyatdan to‘la foydalanilganda o‘sha yilning o‘zidayoq qariyb 200 ming gektar yerga takroriy ekin ekish, bu esa 1 million tonna atrofida qo‘shimcha mahsulot, shuningdek yuz tonnalab qo‘shimcha sabzi, karam va kechki kartoshka olish imkonini berardi [4, 21-b.]. Amaliyotda ketma-ketlik quyidagicha bo‘lgan: kuzda yoki yanvar-mart oylarida arpa ekilgan, iyun oxirida hosil yig‘ib olingan, maydon tezda haydalib, organik va mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirilgan hamda makkajo‘xorining VIR-42 duragayi ekilgan; taxminan 85 kundan keyin makkajo‘xori dumbul pishiqlikda o‘rilib silos bosilgan, avgust oxirida esa bo‘shagan yerga beda sepilgan [4, 21-b.].

70–80-yillarda donchilik va yem-xashak ekinlari almashlab ekish tizimi doirasida saqlanishi kerak edi. 1970-yilgi iyul Plenumi qarorlarida beda - makkajo‘xori - paxta almashlab ekishni joriy etish zarurligi alohida qayd qilingan edi [5, 19-b.]. Amalda esa qarama-qarshi jarayon kuchaydi: chigit ekiladigan maydonlar 1970-yildagi 1 million 709 ming gektardan 1988-yilda 2 million 17 ming gektarga ko‘tarildi [1, 643-b.]. Natijada 1985-yilda 1980-yilga nisbatan don yalpi hosili 977,1 ming tonnaga kam olindi [1, 561-b.].

Keltirilgan ma’lumotlar bir necha xulosaga olib keladi. Birinchidan, vodiyda donchilikning qisqarishi tabiiy-iqlimiy sabablarga emas, balki ma’muriy qarorlarga bog‘liq bo‘lgan: 1930-yildagi “to‘rtdan uch qism” talabi ham, urush yillaridagi vaqtinchalik yumshatish ham markazdan turib belgilangan. Ikkinchidan, urush yillari tajribasi vodiy sharoitida ekin maydonlarining muvozanatli tarkibi texnik jihatdan mumkin ekanini ko‘rsatdi; bu holat 1947-yildan keyin sun’iy ravishda buzildi. Uchinchidan, takroriy ekin amaliyoti mahalliy agronomlar va xo‘jalik rahbarlarining paxta rejasini buzmagan holda oziq-ovqat va yem-xashak muammosini yumshatishga urinishi sifatida baholanishi mumkin. Ammo bu urinish tizimli yechim bo‘la olmadi, chunki 1960-yildayoq makkajo‘xoridan bo‘shagan maydonlar paxta ekish uchun ishlatila boshlagan edi [4, 21-b.].

Xulosa. 1925–1991-yillarda Farg‘ona vodiysida donchilik mustaqil tarmoq sifatida shakllana olmadi va paxtachilikka nisbatan qoldiq tamoyili asosida rivojlandi. Urush yillaridagi qisqa davr (Farg‘ona viloyatida maydonning 25 foizi g‘alla, 16 foizi beda) istisno hisoblanadi. 1950-yillarning oxiridan boshlangan takroriy ekin amaliyoti mahalliy sharoitda yuqori samara bergan bo‘lsa-da, u paxta rejasiga tobe holda qoldi va tarmoqning tarkibiy

holatini o‘zgartira olmadi. Navdor urug‘chilik tizimining kech shakllangani esa erishilgan agrotexnik yutuqlarning ommaviylashuvini sekinlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 688 b.

2. Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане 20-х годов // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1989. – № 9. – С. 32–39.

3. Солянко Г.И. Йилига икки-уч ҳосил // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – 1960. – № __. – 21-бет.

4. Мақсумов З., Маннонов Н.М., Иброҳимов Г.А., Сорокин М.А. «Ўзбекистон беш йиллиги» тажриба совхозида пахта етиштиришнинг янги технологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – 31 б.

5. Тухсинов М., Асронов А., Отахонов Н. Дала экинлари уруғчилиги ва уруғшунослиги. – Фарғона: «Фарғона» нашриёти, 1999. – 208 б.

